

UDK: 630*232.311.3

Axmadjonov Akmaljon Axmadjonovich
Oʻrmon xoʻjaligini rivojlantirish innovatsiya markazi direktori,
Oʻzbekiston, Andijon

Olimjonov Abdulbosid Dilmurot oʻgʻli
Oʻrmon xoʻjaligini rivojlantirish innovatsiya markazi boʻlim boshligʻi,
Oʻzbekiston, Andijon

XANDON PISTA YETISHTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oʻrmon xoʻjaligi davlat qoʻmitasi tizimidagi viloyat oʻrmon xoʻjaliklarida adirlik va tabiiy togʻoldi maydonlarida xandon pista plantatsiyalarini barpo qilish ishlari va ushbu oʻsimlikning hususiyatlari haqida maʼlumotlar berilgan

Kalit soʻzlar: Xandon pista, plantatsiya, oʻrmon, adirlik, togʻoldi, maydon, nav.

Abstract: This article provides information about the creation of a pistachio plantation in the hilly and natural foothill district forests of the State Forestry Committee and the characteristics of this plant.

Key words : pistachio, plantation, forest, hill, foothills, field, variety.

Аннотация: В данной статье приведены сведения о создании плантации фисташки на холмистых и естественных предгорных районных лесов Государственного комитета лесного хозяйства и характеристика этого растения.

Ключевые слова: фисташка, плантация, лес, холм, предгорье, поле, сорт.

Respublikamizning umumiy maydoni 44457,9 ming gektarni tashkil qilib, shundan 3334,3 ming gektar maydonda sugʻorib dehqonchilik qilinsa, 23473,8 ming gektar maydoni qir adirli, sugʻorilmaydigan maydonlarga kiradi. Shu boisdan bu maydonlardan unumli foydalanish dolzarb masalardan hisoblanadi. Bu borada hozirgi kunda Mamlakatimizning barcha yer maydonlaridan unumli, samarali foydalanish va ularning samaradorligini oshirib borish muhim ahamiyatga ega. Respublikamizning sugʻorilmaydigan lalmikor yer maydonlaridan unumli foydalanib, lalmikor dehqonchilik bilan bir qatorda, ushbu tuproq iqlim sharoitlariga mos, suvsizlikka bardoshli mevali va manzarali daraxtlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

2021 yil noyabrda «Yashil makon» umummilliy loyihasi e’lon qilinib, 200 mln tup daraxt ko‘chati ekish rejalashtirilgan edi. Kuzda 85 mln dona ko‘chat o‘tqazildi. Ko‘plab tashkilotlar, mahallalar, umuman, keng jamoatchilik bu savobli ishda jonbozlik ko‘rsatdi. Bu yil bahor mavsumida respublikamizda 125 mln dona daraxt ko‘chatlarini ekish mo‘ljallanmoqda.

Davlatimiz rahbari „Yashil makon“ umummilliy loyihasi bir yillik tadbir emas. Uning doirasida kelgusi besh yilda 1 milliard tup daraxt ko‘chatini ekishni maqsad qilganmiz. Bu umummilliy harakatning natijasi har bir mahallada ko‘rinishi kerak, bu savobli ishni havas bilan qilish kerak. Agar O‘zbekistonda ekologiyani yaxshilayman desa, har yili har bir xonadan ikkitadan daraxt eksin. Har bir tashkilot beshtadan daraxt eksin, qaysi tashkilot bo‘lishidan qat’i nazar. Oliygo‘hmi, maktabmi, tibbiyotmi, katta-katta korxonalarimi. Mana shuni O‘zbekiston tajribasi qilsak, bahor boshlangancha. Xalqimiz qo‘llab-quvvatlaydi, albatta. Mana shuni qilsak, duoga qolamiz» deb ta’kidlagan.

Shularni hisobga olgan xolda xandon pista plantatsiyalarni tashkil etish va yetishtirish agrotexnologiyalarini joriy qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bizning lalmikor tuproqlarimiga mos, kam suv talab qiluvchi mevali yong‘oq, handon pista, bodom va boshqa daraxtlardan foydalaniladi. Bu mevali daraxtlar nafaqat oziq-ovqat maxsulotlari sifatida istemol qilinadi, balki ular halq tabobatida dori-darmon uchun ham ishlatib kelinadi. Misol uchun: Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonuni” nomli asarida jigar, oshqozon kabi kasalliklarini davolashda hamda inson tanasining tashqi yaralarni tuzatishda pista o‘simligini o‘rni haqida alohida ba’yon etilgan. Shuningdek, pista o‘simligining mevasi surunkali tus olgan o‘pka kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Pista mevasi po‘stidan tayyorlangan damlama oshqozon kasalliklarida ichiladi. Shu bilan birga, pista daraxti oshlovchi moddalar – tanin va qatron olish manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ming yillardan buyon pista Sharqda organizmni zararli

moddalardan tozalashga xizmat qiluvchi ajoyib shifo vositasi sifatida ishlatiladi. Suriya va Fors tabiblari ortiqcha vazndan xalos bo‘lmoqchi bo‘lgan odamlarga pista iste’mol qilishni tayinlagan [1].

Xandon pista jahonning ko‘plab mamlakatlarida muhim qishloq xo‘jaligi ekini hisoblanadi. Dunyo bo‘yicha yiliga 550 ming tonna pista yetishtirilmoqda. Mamlakatimiz xandon pista yetishtiruvchi yetakchi ishlab chiqaruvchilar ro‘yxatida 13-o‘rinni egallaydi. Bunday noyob mevani tayyorlashning mamlakatimizdagi yillik miqdori 200 tonnani tashkil qilmoqda. O‘zbekiston o‘zining qulay sharoitlari tufayli jahonda xandon pista ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi o‘nlikka kirib olishi mumkin. Buning uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud. Farg‘ona vodiysi tuproq iqlim sharoitida xandon pista yetishtirish ishlari amalga oshirilmoqda [3].

Xandon pista daraxti ikki uyli, qimmatbaho yong‘oqmeva beruvchi buta daraxt bo‘lib, balandligi 8-10 metrgacha borishi, daraxt aylana diametri 5-6 metrgacha o‘sa olishi mumkin. Mevalari xushta‘m oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Tarkibida 60% yog‘, 15-20% oqsil, 13% gacha uglevod, 3-8% qand moddasi va ko‘plab mikroelementlar mavjud. Pista yong‘og‘i ichki va tashqi bozorda juda yuqori baholanadi, O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari uchun esa yuqori samarali eksport mahsuloti hisoblanadi. Sizot suvlari 3 metrdan pastda joylashgan, quruq va yoz oylari issiq xududlarda yaxshi o‘sadi. Sho‘r, toshloq, unumdorligi past va qiyalik adirlarda, ayniqsa kaltsiyga boy yerlarda juda ham yaxshi o‘sadi. Pistaning o‘sishi uchun eng qulay balandlik dengiz sathidan 800 dan 1300 metrgacha bo‘lgan maydonlar hisoblanadi (1-rasm) [2].



1-rasm Xandon pista

Pista qatroni pista terpentini deb nomlanib, yuqori texnik xossalarga ega va samolyotsozlikda keng ishlatiladigan yuqori sifatli laklar tayyorlashda qoʻllaniladi.

Pistani “kombinant daraxt” deb atashlari bejiz emas, chunki uning barcha qismlari (poyasi, barglari, mevalari, qatroni) inson ehtiyojlarini qanoatlantirishda ishlatilishi mumkin. Oʻrta yer dengizi mamlakatlarida (Eron, Turkiya, Suriya va b.) pistani u keltirgan yuqori daromad sababli “Yashil oltin” yoki “Tilla daraxt” deb atashadi [4].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 6 oktyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi Oʻrmon xoʻjaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PQ-4850-son qarori ijrosini taʼminlash maqsadida Oʻrmon xoʻjaligi davlat qoʻmitasi tizimidagi viloyat oʻrmon xoʻjaliklarida oʻrmon barpo etish ishlari, jumladan adirlik va tabiiy togʻoldi maydonlarida xandon pista plantatsiyalarini barpo qilish ishlari jadal surʼatlarda olib borilmoqda. Ushbu qarorga asosan 2021 — 2030 yillarda oʻrmon xoʻjaliklarida daraxt va butalar nihol hamda koʻchatlarini yetishtirishning prognoz koʻrsatkichi Andion viloyati uchun 39811 ming donani tashkil etadi [5].

Shuningdek, ushbu qarorda yongʻoq, bodom va pista oʻrmonlarini yuqori hosildor navlar bilan toʻldirish va sanoat plantatsiyalarini barpo etish. Oʻrmon fondi maydonlarida tarqalgan yovvoyi va madaniy holdagi yongʻoqmevali (pista, bodom, grek yongʻogʻi, funduk, pekan va boshqalar) oʻsimliklarning genetik resurslarini oʻrganish, saqlash va bioxilma-xilligini koʻpaytirish boʻyicha hamkorlikda loyihalar ishlab chiqish. Oʻrmon xoʻjaligi ilmiy tadqiqot instituti olimlari tomonidan yaratilgan xandon pistaning 13 ta yangi

navlarini 2020 yil yakuniga qadar oʻrnatilgan tartibda davlat roʻyxatidan oʻtkazish kabi topshiriqlar berilgan.

Andijon davlat oʻrmon xoʻjaligi tomonidan 2017-2021 yillar davomida adirlik va togʻoldi xududlarda 3 ming gektardan ziyod maydonlarda xandon pista plantatsiyalarini barpo qilish ishlari amalga oshirilgan boʻlib, ushbu ishlar jarayoni 2030 yilga qadar davom etishi belgilab qoʻyilgan. Ushbu plantatsiyalar Andijon viloyati Qoʻrgʻontepa tumani Toshoxur oʻrmon boʻlimi, Buloqboshi tumani Imom-Ota Oʻrmon uchustkasi, Asaka tumani Sharq xaqiqati oʻrmon uchastkasi hamda Marxamat tumani Marxamat oʻrmon uchastkasining adirlik va togʻoldi maydonlarida jami 2017-2021 yillar davomida 3185 gektar maydonda tashkil etildi. 2022 yil xolatiga mavsum boshidan Andijon viloyatidagi Andijon davlat oʻrmon xoʻjaligiga qarashli Qoʻrgʻontepa tumani Toshoxur oʻrmon boʻlimi, Buloqboshi tumani Imom-Ota Oʻrmon uchustkasi, Asaka tumani Sharq xaqiqati oʻrmon uchastkasi hamda Marxamat tumani Marxamat oʻrmon uchastkalarida xandon pistaning Bobotogʻ, Orzu, Serhosil, Togʻ marvaridi navlari asosida 3 gektar maydonda onalik plantatsiyasi tashkil ekildi.

Ushbu tashkil qilingan xandon pista plantatsiyalariga har yili payvandlash shakl berish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek ushbu oʻsimlikning yaxshi oʻsib yetilishi uchun barcha agrotexnik tadbirlar oʻz vaqtida oʻtkazilib kelinmoqda. Plantatsiyalarda mutahassislar tomonidan monitoring ishlari oʻtkazilib zararkunanda va kasalliklari aniqlanganda ruhsat etilgan pestitsidlardan foydalanib himoya qilish tadbirlari ham olib borilmoqda.

Afsuski xandon pista plantatsiyalari mavjud adirlik va togʻ tizmasi etaklarining quyi qismi aholi turar joylariga tutash boʻlib, odamlarning chuqur oʻylamagan faoliyati (daraxtlarni kesish, chorva boqish) oqibatida boʻshab qolgan va bu pistaning tabiiy qayta tiklanishiga toʻsqinlik qilmoqda. Bugungi kunda xatto chorvani oʻtlatishga yaramay qolgan yirik xududlarning choʻllanishi kuzatilmoqda. Faqatgina pista oʻsimligini yetishtirish bu yerlarning yanada

tanazzulga yuz tutishini oldini olish, bu navlarning oldingi arealini qayta tiklash imkonini beradi [1].

Bu muhim ishlarga davlat tuzilmalaridan tashqari mahalliy aholi, dehqon va fermer xo‘jaliklarini jalb etilishi ushbu yer maydonlaridan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

Bu qimmatli mag‘izli o‘simlikni yetishtirishga iloji boricha ko‘proq qishloq axolisini jalb etilishi ularning moddiy farovonligini sezilarli tarzda oshirishga, tabiat uchun esa ekologik barqarorlikni qayta tiklashga xizmat qiladi.

Insoniyatga ming yillardan buyon xizmat qilib kelayotgan tabiat mo‘jizasi bo‘lmish o‘rmonzorlarni asrab avaylash, undan oqilona foydalanish hamda kelgusi avlodlarga yetib borishi taminlash har birimizning insoniy va muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Г.М.Чернова, Е.К.Ботман, Л.В.Николяи, Т.Э.Туляганов – “Ўзбекистоннинг тоғолди худудларида хандон писта навли плантацияларини яратиш бўйича Тавсиялар”. Тошкент-2017 йил.
2. М.Холмуротов, А.Қайимов, Г.М.Чернова, А.Тўраев – “Хандон писта плантацияларини барпо этишда унинг истиқболли шакл ва навларини асослаш”. Тошкент-2012 йил.
3. З.Т.Бустонов, Ж.Ж.Хомидов, Ш.Абдулазизов – Андижон вилояти шароитида хандон писта етиштириш / Ўрмон хўжалиги илм-фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини ривожлантиришда ёшларнинг рўли мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. Тошкент-2021 йил 81-83-б.
4. Yashil oltin (Pistachio Uzbekistan) telegram kanali ma'lumotlari.
5. www.lex.uz sayti ma'lumotlari.